

QORAQALPOG'ISTONDA PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Utebaev Tajibay Tileumuratovich

Pedagogika fanlari doktori., professor

Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri

Nukus davlat pedagogika instituti

utebaev2@list.ru

REZYUME. Maqolada Qoraqalpog'istonda pedagogika tarixini rivojlantirishda o'zlarining ko'plab hissalarini qo'shgan olimlarimiz, pedagogika ilmidagi olib borilgan ilmiytadqiqot ishlari va ularning istiqbollari haqida so'z etilgan.

KALIT SO'ZLAR: pedagogika, ilmiytadqiqot, ta'limg-tarbiya jarayoni, pedagogik texnologiya, metodika.

РЕЗЮМЕ. В статье рассказывается о наших ученых, внесших большой вклад в развитие истории педагогики Каракалпакстана, о научно-исследовательских работах в области педагогики и их перспективах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: педагогика, исследование, образовательный процесс, педагогическая технология, методика.

ABSTRACT. The article deals with the information about our scientists who made a lot of contributions to the development of the history of pedagogy in Karakalpakstan, about the scientific research work in the field of pedagogy and their prospects.

KEY WORDS: pedagogy, research, educational process, pedagogical technology, methodology.

Kirish. Uzoq tarixga ega bo'lgan qoraqalpoq xalqining ta'limg-tarbiyaga oid boy hayotiy tajribasi kelgusi yosh avlodni bilimli, hur fikrli, e'tiqodli, mustahkam iroda, dunyoqarash va tafakkurga ega, o'zligini, o'z haq-huquqini, nihoyat, milliy o'zligini anglagan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdek kuchga ega. Ayniqsa, xalqimizning fan, maktab va maorif sohasidagi boy tajribasini ilmiy o'rganish, ularning maqsadga muvofiq jihatlaridan bugungi ta'limg tizimida samarali foydalanish ijtimoiy zaruriyatdir. Bu birinchidan, ta'limg sifatini oshirsa, ikkinchidan, kelajak avlodning qalbida Vatan tuyg'usini shakllantiradi. Uchinchidan esa, pedagogika ilmini, aniqrog'i pedagogika sohasini muayyan tarixiy-pedagogik fikr bilan boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Qoraqalpoq xalqining tarixiy meroslari va tarbiyaviy tasavvurlari

Harbiy san'at sirlari, qizlar tarbiyasi	"Qirq qiz", "To'maris", "Ayollar sultanati"
---	---

Yoshlarni samimiylilik va adolatlilik tamoyili asosida tarbiyalash	Eng qadimgi yozuvlar (Avesto, so'g'd, baqtriya yozuvlari)
Turkiy xalqlarning tarbiyaviy aqidalari	"Tunyukuk", "Bilka hoqon", "Ongin", "Ko'li-chir", "Qizil-chir", "Oltinko'l"
Sharq Uyg'onish davri	Muhammad al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino
Didaktik asarlarning yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati	Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy
Mo'g'ullar istibdodidan so'ng Oltin O'rda va No'g'ay tarkibiga kiritilgan qipchoqlar, qoraqalpoqlar	Botu Saroy, Berke Saroy, O'tror, Qashg'or, Bolasog'un, Talas, O'zgan madaniyat markazlari
Madrasalarda	Astronomiya, arxitektura, kasb-hunar turlari turkiy tilli izohlar orqali o'qitila boshlandi.
Ta'limiy-axloqiy asarlar bilan birga jirovlar	Sopbasli Sapira jirov, Asan Sabit uli, Shal kiyiz, Qaz tuo'g'an, Jiyrenshe, Dospambet jirov, Jiyen Amanliq o'g'li
Qoraqalpoq ma'rifatparvarlari	Kunxoja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh, S.Majitov, A.Musaev, X.Axmetov
Tayanch maktablar	J.Xojametov, G.Begaliev, S.Majitov, Q.Avezov

Qadimiy Xorazmda Qoraqalpoq o'lkasida yuzaga kelgan ilk maktablar tarixi, maorif tizimining shakllanishi tarixi bo'yicha pedagog va tarixchi olimlar J.Urumbaev, G.Nepesov, U.Aleuov, M.Qarlibaevlar tadqiqot ishlarini olib borganlar [1, 2, 7].

Qoraqalpog'istonda XX asr boshidan XXI boshlari bo'lgan davrdagi ta'lim-tarbiya, maktab va maorif masalalari [5, 6] N.A.Baskakov, Ya.Dusimov, A.Panabergenov, R.Timasheva, Sh.Nepesova, B.Sultamuratov, G.Baymuratov,

B.Jolamanov, Q.Daniyarov, T.Aytanov, ishlarida ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan.

XX asrning 40-60-yillarida N.Urumbaev, K.Ubaydullaev, 70-90-yillarda esa J.Qayirbaev, R.Jumaniyazov, O.Korseev, S.Babaev, O.Matkurbanov, R.P.Xvan, P.Shilmanov, S.Baribina, A.Qurbanbaev, T.Karamaddinova, G.Qallibekova, A.Pazilov singari yirik metodist-olimlar ismi bilan uzviy bog'liqdir.

Mustaqillik yillarida, qoraqalpoq xalqi ta'lif-tarbiya sohasida ham yangicha pedagogik qarashlarga ega bo'ldi. Xususan, U.Aleuov, E.Yangibaeva, R.Urazbaeva, I.Allaniyazov, P.Abdimuratov, U.Seytjanova, G.Jumasheva, F.Babashev, T.Saparbaev, Z.Qurbaniyazova, M.Pazilova, A.Tilegenov, P.Berdanova, R.Aleuova, R.Nurjanova, S.Romanova, A.Bekimbetova, R.Torejanova, Q.Seytmuratov va boshqalarning ishlarida xalqimizning milliy mentalitetni hisobga olingan holda milliy tarbiya, o'zlikni anglash, kelajak avlodni ma'naviy-ahloqiy ruhda tarbiyalash masalalari yoritildi.

Ayniqsa, mustaqillik davridagi umumiyligi o'rta ta'lif tizimi takomili. Shuningdek, o'rta maxsus ta'lif tizimining rivojlanishi bu sohaga katta ta'sirchan zamin bo'ldi. Jumladan, I.Pirniyazov, R.Seytimbetova, T.Jiemuratov, Z.Qurbaniyazova, I.Matchanov, T.Qudaybergenova, S.Seytbekova, T.Saparovlar ma'naviy-axloqiy va boshqa tarbiya turlari va metodikasini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. E.Yangibaeva, X.Alyaminov, J.Darmenov, T.Abduxaliqov, R.Gaypova, M.Ajieva, A.Nao'rizbaeva, N.Jumabaev, N.Bekniyazova, R.Nurjanova, A.Urumbaeva, M.Pirmjarov, G.Urumbaeva, G.Karlibaeva, M.Allambergenova, A.Xojaniyazova, G.Saparova, T.Saparbaev va boshqalar didaktikada yangi pedagogik texnologiyalarning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shdilar.

Muhokama.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda yosh avlodni sog'lom, har tomonlama kamol topgan insonlar qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatiga katta e'tibor berildi. Bu haqda hukumatimiz

tomonidan qator muhim qarorlar qabul qilindi. Natijada mamlakatimizda sportning barcha turlari keng ko'lamda rivojlandi, xalqimizning iste'dodli farzandlari jahon bo'ylab o'z imkoniyatlarini namoyon etdilar. O'nlab jahon championlari yetishib chiqdi, ular mamlakat sha'nini dunyo miqyosida mustahkam turib himoya qildilar. Jumladan: A.Niyazov, P.Serimbetov, B.Kaypov, N.Kaypovlar. Chet tillarini o'qitish metodikasi bo'yicha D.Mamirbaeva, A.Tajieva, J.Kurbanbaevlar didaktikada yangi pedagogik texnologiyalarning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shdilar.

Bundan tashqari, 2013-2023-yillargacha bo'lgan mustaqillikning 10 yilligida, mamlakatimiz yoshlarini har tomonlama sog'lom, bilimli insonlar etib tarbiyalash, hamda yangilangan ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, shakl va metodlarini yanada yaxshilash, oldingi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, shuningdek, ta'lim sifatining mazmunini yanada boyitish borasida mamlakatimizda qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Xususan, didaktika va pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha olimlarimiz ko'plab ishlarni amalga oshirdi. Shulardan, 13.00.01 – "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limatlar tarixi" mutaxassisligi bo'yicha 4 ta pedagogika fanlari doktori T. Utebaev, Q. Qadirov, Z. Kurbaniyazova, M. Pazilovalar, 13.00.02 – "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" mutaxassisligi bo'yicha 5 ta pedagogika fanlari doktori, G. Qarlibaeva, G. Jumasheva, Q. Yusupov, G. Abilova, N. Matchanova, 13.00.01 - «Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta'limatlar tarixi» mutaxassisligi bo'yicha 32 ta pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M. Aytimbetov, N. Naǵmetova, J. Asamatdinova, G. Aljanova, L.Bektursinova, I. Moyanov, A. Erejepov, N. Abdurakov, S. Alawatdinov, E.Tilewov, J. Otepbergenov, G. Bekimbetova, A. Allambergenov, Sh.Allanazarova, G. Babashevalar, A. Dauekeeva, A. Qadrekova, B. Bekniyazov, Yu. Purxanov, A. Ismaylov, D. Gaypov, A. Turekeeva, G. Yusupova, E.Allambergenov, A. Qudaynazarov, J. Taspanova, M. Allayarov, A.

Aynazarova, E. Orazimbetov, A. Qurbanbaeva, R. Xojamuratov, A. Narshabaevalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan.

Shuningdek, 13.00.02 – “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” mutaxassisligi bo'yicha 19 ta pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), N.Babaniyazova, S. Tajbenova, N. Matchanov, I. Allambergenov, M. Berdibaev, G. Abilova, G. Izetaeva, N. Orimbetov, A. Sultanova, Z. Ilyasova, K. Jakaeva, Z.Jumagulov, U. Xodjaniyazova, T. Qalekeeva, F. Kaypbergenova, A. Najimova, D. Jumambetova, N. Aytimbetov, R. Xojanazarova, S. Kabulov, B. Tilegenov, K.Qalimbetovlar, hamda 13.00.04 mutaxassisligi bo'yicha 2 ta pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) D. Nurishov, B. Erimbetovlar diqqatga sazovor ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan.

Xulosa.

Xulosa sifatida, Qoraqalpoq xalqi pedagogikasi sohasida bu uch fan doktori J.A.Urumbayev, N.A.Urumbayev, U.Alewovlarning [3, 4] har biri o‘z ilmiy mакtablarini yaratgan olimlar sifatida nazarda tutiladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, ta’lim sohasida real o‘zgarishlar ro‘y berdi. Keyingi yillarda mamlakatimizda pedagogika fanini o‘rganuvchi olimlar safi kundan kunga kengayib bormoqda. Ilm-fan rivojlandi. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonda pedagogika tarixini rivojlantirishda hissa qo'shgan olimlarimiz, kelajak yoshlarimizga o'ziga xos ilmiy maktablarni yaratadi va rivojlandiradi deya ishonch bildiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alesov U. Qoraqalpog‘istonda ma'rifiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi. (Qoraqapoq tilida). Nukus: Bilim, 1993. 503 b.
2. Alesov U., Utebaev T. Qoraqalpog‘istonda pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi. (Qoraqapoq tilida). T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2007. 128 b.
3. Bekbosov A., Xayrboyev J. Atoqli olim, pedagog. (J.Urumboyev haqida). Nukus: Qoraqalpog‘iston, 1982. 48 b.

4. Urumbayev J. Ocherki istorii shkoli Qaraqalpaqstane (1810-1967 gg). (rus tilida) Nukus: Qoraqalpog'iston, 1973. 583 b.
5. Do'stjanov A. O'qituvchilar: Ilg'or tajriba maktabi. Nukus: Bilim, 1990. 76 b.
6. U.Alewov. Bolalar o'yinlarining ongni tarbiyalashdagi ahamiyati. // Qoraqalpoq xalqi etnopedagogikasi. Nukus. "Bilim" 1995 yil, 46-bet.
7. www.Ziyonet.uz
8. Utebaev T., Sarsenbaeva Z. LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF PROVERBS //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
9. Sarsenbaeva, Z.J., Utebaev, T.T. Role of phraseology in developing communicative competence. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 6 | Issue: 9. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra5111>